






I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yil yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatining ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YAHM) ning hajmi 7 002,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021 yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 3,1 foizga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,3 foizga yetdi.



2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2021 yil	2022 yil	
	I. YAHM	5 890,8	7 002,7	103,1
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 662,4	6 655,8	103,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	228,4	346,9	103,0
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 662,4	6 655,8	103,1
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 527,1	1 703,0	103,1
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 760,4	2 045,1	96,7
	sanoat	1 205,0	1 377,6	93,8
	qurilish	555,4	667,5	102,8
	Xizmatlar	2 374,9	2 907,7	107,7
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	586,4	745,1	114,0

		Mlrd. so'm		o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2021 yil	2022 yil	
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	430,8	501,7	111,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 357,7	1 660,9	103,9

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 536,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 foizga yuqoridir.












2021-2022 yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,0 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,0 foizini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 25,6 foizni, sanoat tarmog‘ining ulushi 20,7 foizni, qurilish sohasida 10,0 foizni va xizmatlar sohasi 43,7 foizni tashkil qildi.

 2021-2022 yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)			
		2021 yil	2022 yil
	I. YAHM	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	96,1	95,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,9	5,0
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	27,0	25,6
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	31,1	30,7
	sanoat	21,3	20,7
	qurilish	9,8	10,0
	Xizmatlar	41,9	43,7
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	10,4	11,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,6	7,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	23,9	25,0




2021-2022 yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


2021- yil




2022- yil



YAHMning oʻsishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy oʻsish surʼatlari bilan bogʻliqdir. Oʻsish surʼatlari qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 103,1 foiz (YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi (25,6 foiz), sanoatda 93,8 foiz (20,7 foiz), qurilishda 102,8 foiz (10,0 foiz), xizmatlar sohasida 107,7 foizni (43,7 foiz) tashkil etdi.




2021-2022 yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mutlaq oʻsish surʼatlari
(oʻtgan yilning mos davriga nisbatan % da)




2022 yilga YAHM deflyatori indeksi 2021 yildagi narxlarga nisbatan 115,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori koʻrsatkichlari sanoat sohasida 121,8 foiz va qurilishda tarmogʻida 116,9 foiz qayd etildi.



**2021-2022 yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**2021-2022 yillarning yanvar-mart oylarida YAHMda kichik
biznesning ulushi
(jamiga nisbatan %da)**



2022- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 66,7 %ni tashkil qildi (2021- yilda – 67,3 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.